



PEDAGOG

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

The journal "Pedagog" covers the sphere of spiritual and educational thinking of a person, the socio-political life of a person, institutions of civil society, global problems, problems of education, new technologies produced today, reforming the education system and publishes scientific articles on open scientific popular analysis.

The journal is intended for students, masters, professional scientists and researchers, university professors. The publication publishes articles of a problematic and scientific-practical nature.



Volume 7, Issue 4



Exact
Natural
Medical
Technical
Economics
Philological
Pedagogical
Social sciences
and humanities





«BEST PUBLICATION»

Ilmiy-tadqiqotlar markazi ©

**“PEDAGOG”
RESPUBLIKA ILMIY JURNALI**

MATERIALLARI TO‘PLAMI

15-APREL, 2024-YIL

7-TOM 4-SON

O‘ZBEKISTON
2024

PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

7 – TOM 4 – SON / 2024 - YIL / 15 - APREL

STRUCTURAL-SEMANTIC ANALYSIS OF STATIONARY TERMINOLOGICAL VOCABULARY.		
101.	Atashayxov Abduvahid Abdushukurovich <i>KURASH BO'YICHA YUQORI MALAKAGA EGA BO'LISH TEXNIKASI</i>	582
102.	Гульмира Джуманиязовна Арсланова <i>ФОРМИРОВАНИЕ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА</i>	588
103.	Lukmonova Salomat Gafurovna <i>RAQAMLI TA'LIM – O'QUV-TARBIYA JARAYONIDA SIFAT SAMARADORLIGI OMILI</i>	594
104.	Z.M. Zarifova <i>« FORMATION OF MANAGEMENT CULTURE AMONG PRESCHOOL EDUCATION PRACTITIONERS »</i>	600
105.	Бадалова Б.Т. <i>ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИКНИНГ СОҲАЛАР ТЕРМИНОЛОГИЯСИ ВА АМАЛИЙ МЕТОДИКАСИ</i>	608
106.	Axmadxonov Afzaliddin Abduvos O'g'li, Ochilov Istam Nabiyevich <i>ELEKTROSHOK QURILMALARINING QO'LLANILISHI, AFZALLIKLARI, KAMCHILIKLARI VA TUZILISHI.</i>	615
107.	Nargizakhon Khodjayeva Saydolim kizi <i>THE PEDAGOGICAL FEATURES OF SELF-STUDY: A COMPREHENSIVE ANALYSIS OF ITS' TYPES</i>	620
108.	Toshmurodov Ahror <i>VOYAGA YETMAGAN JINOYATCHILAR SHAXSINI O'RGANISHNING KRIMINOLOGIK TAVSIFI VA UNING AHAMIYATI</i>	626
109.	Qosimova Xusnuraxon Oybek qizi <i>TURLI TIZIMDAGI TILLARDA KIRISH BO'LAKLAR VA ULARNI IFODALOVCHI SINTAKTIK VOSITALAR</i>	631
110.	Абдукаримова Шахноза Набиевна <i>БУЛАЖАК ТАРБИЯЧИЛАРДА КРЕАТИВЛИК ҚОБИЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМИ .</i>	635
111.	Serkaboyeva N.B. <i>BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'YIN TEKNOLOGIYALARI YORDAMIDA O'QUVCHI QIZIQISHINI ANIQLASH YO'LLARI</i>	640
112.	B. F. Mirzamuratov <i>O'RTA TA'LIMDA FIZIKANI O'QITISH JARAYONINING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI.</i>	644
113.	Maxamatxo'jaeva G.U. <i>INGLIZ VA RUS BAYNALMINAL SO`ZLARNING TARJIMA MUAMMOLARI</i>	647
114.	Ahmedov Azimjon Ilkhomovich Olimova Odinaxon <i>"INTRODUCTION TO TRANSLATION AND STRATEGIES"</i>	651
115.	Ahmedov Azimjon Ilkhomovich Ashirova Nilufarxon <i>"UNDERSTANDING TRANSLATION UNITS AND SHIFTS"</i>	656
116.	Gulyuza Maxamataliyeva <i>BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI BILAN INDIVIDUAL ISHLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI</i>	661
117.	M.M. Xamrakulova <i>KASB TANLASHGA MUNOSABAT TIZIMIDA MAVJUD MUAMMOLARI</i>	664
118.	Khomidova Ayshakhanim <i>THE FIRST ACADEMIC WOMAN OF UZBEKISTAN KHADICHA SULAYMANOVA</i>	669
119.	Teshaboyev E. <i>KURASH MUSOBAQASIGA HAKAMLARNI TAYYORLASH USUL VA SHAKLLARI.</i>	671
120.	Saytinbetov E. <i>FUTBOL MUSOBAQALARINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH</i>	674
121.	G'ulomjonov D. <i>GANDBOL O'YINIDA TEXNIK TAKTIK TAYYORGARLIKNING AHAMIYATI</i>	680

**GANDBOL O'YINIDA TEXNIK TAKTIK TAYYORGARLIKNING
AHAMIYATI**

MAMATQULOV RAVSHANJON SOLIJONOVICH

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Jismoniy madaniyat” fakulteti katta o‘qituvchisi

G’ulomjonov D.

CHDPU Jismoniy madaniyat fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada gandbol texnikasini takomillashtirish uchun ma'lum bo'lgan barcha usullardan foydalilanadi. Shular jumlasidan, takrorlash usuli ko'proq tarqalgan. Shuningdek, musobaqa usullarining barcha turlaridan ham foydalilanadi. Texnika - o'yinning asosi. Faqat uni mukammal egallash va har xil o'yin sharoitida qo'llashni bilish yuqori sport malakasiga erishishning garovidir.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya, jismoniy tayyorgarlik, gandbol, texnik va taktik tayyorgarlik, gurux, jamoa, jismoniy holat, tanlab olish.

Аннотация: В данной статье использованы все известные методы улучшения техники игры в гандбол. Среди них более распространен метод повторения. Также используются все виды конкурентных методов. Техника – основа игры. Только в совершенстве владеть им и уметь использовать его в различных игровых условиях – залог достижения высокого спортивного мастерства.

Abstract: This article uses all known methods to improve handball technique. Among them, the repetition method is more common. All types of competition methods are also used. Technique is the basis of the game. Only mastering it perfectly and knowing how to use it in various game conditions is the guarantee of achieving high sports skills.

Key words: physical training, physical training, handball, technical and tactical training, group, team, physical condition, selection.

Texnik tayyorgarlik; Har bir o'yinchining texnik mahorati uning ixtiyorida bo'lgan, ijro etishni yaxshi bilgan o'yin vazifalarini hal etish uchun kerakli texnik usullar turlari ko'pligiga qarab belgilanadi. Gандbolchining sport tayyorgarligi jarayoni o'yin texnikasining muntazam yaxshilanib borishi bilan uzviy bog'liqdir. Mashg'ulotning bosh vazifalaridan biri - gandbol texnikasini har tomonlama egallashdan iboratdir.

Mazkur vazifani hal qilish uchun:

- 1) o'yinning barcha hozirgi zamon texnik usullarini bir xil darajada egallagan bo'lismeni va ularni turli shart-sharoitda yanada takomillashgan usullar bilan bajarishni bilishni;
- 2) bir usulni ikkinchisi bilan turli izchillikda qo'shib olib bora bilishni;
- 3) jamoa bo'lib bajariladigan harakatlarga bog'liq ravishda o'yin paytida ko'proq foydalilanadigan hujum va himoya usullarini egallashni;

4) erkin va ixtiyoriy harakatlarda ishlatiladigan usullarning umumiy muvofiqligini tobora oshirib, ijro sifatini muntazam yaxshilab borishni talab qiladi.

Gandbolchilar texnik mahoratini takomillashtirish umumnazariy asoslarga quriladi va taktikani takomillashtirish, harakat va ma'naviy iroda sifatlarini rivojlantirish bilan birga qo'shib bajariladi. Mashg'ulot jarayonida usulni bajarish texnikasini nimalar hisobiga yaxshilash mumkinligini aniqlash kerak. Buning uchun quyidagi harakat sifatlarini, ya'ni tezkorlik, kuch, chidamlilik, egiluvchanlik, chaqqonlik va hokazolar darajasini yuqori ko'tarish samarali yordam beradi.

Jamoaning mahorati o'yinchilardagi texnik tayyorgarlikning darajasiga bog'liq. O'yin uchun zarur bo'lgan barcha uslublar va ularni bajarish usullari texnik tayyorgarlik jarayonida oshib boraveradi, shu bilan birga sportchining shaxsiy qobiliyati va jamoa uchun zarur bo'lgan umum harakatlar takomillashadi.

Texnikani takomillashtirish uchun ma'lum bo'lgan barcha usullardan foydalaniladi. Shular jumlasidan, takrorlash usuli ko'proq tarqalgan. Shuningdek, musobaqa usullarining barcha turlaridan ham foydalaniladi.

Texnika - o'yinning asosi. Faqt uni mukammal egallah va har xil o'yin sharoitida qo'llashni bilish yuqori sport malakasiga erishishning garovidir.

Taktik tayyorgarlik; taktikada ta'lif va takomillashtirish jarayoni mashg'ulotning juda muhim hamda murakkab bo'limidir. Raqib jamoasi ustidan g'alaba qozonishda jismoniy, texnik tayyorgarlik bilan bir qatorda o'z imkoniyatlaridan to'g'ri va ustalik bilan foydalana bilish, ya'ni taktika katta ahamiyatga ega. Biroq taktika ko'p, omillarga texnikani bilish va undan to'g'ri foydalanish, o'z kuchini o'yin vaqtida to'g'ri taqsimlay olish, musobaqa shart-sharoitlarini nazarda tutish, qoidani izohlash, sheriklar va raqiblarning harakatlarini to'g'ri baholash va boshqalarga bog'liq. Sport kurashini to'g'ri tashkil qila bilish muntazam o'rganiladigan san'atdir. Ana shuning uchun ham mashg'ulot jarayonida o'yinchilar strategiya va taktikaga oid barcha bilimlarni egallab, juda ko'p mahorat va malakalarni o'zlashtirishlari lozim.

Taktik tayyorgarlik jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- 1) o'yin taktikasini muvaffaqiyatli egallah uchun zarur bo'lgan qobiliyatni tarbiyalash;
- 2) shaxsiy, guruh va jamoa bo'lib harakat qilishni o'rganib olish, o'yinchilarda qo'yilgan vazifalarni hal qilish uchun texnik usullar va taktik harakatlardan alohida-alohida tarzda, samarali foydalana bilishni shakllantirish;
- 3) bir taktik tizimdan ikkinchisiga, hujumdan himoyaga o'tish qobiliyatini tarbiyalash va uni takomillashtirish;
- 4) jamoada har bir o'yinchining o'ynash joyini hisobga olgan holda taktik tayyorgarlikni takomillashtirish.

Gandbolchilarning taktik ko'nikmalarini takomillashtirishda o'zlashtirilgan va o'rganilgan mashqlarni ko'p marta takrorlash taktikadagi ta'lif va mashg'ulotning asosiy uslubi hisoblanadi. Shunday mashg'ulotlarning natijasida gandbolchilarda o'yin taktikasi qolipga tushiriladi.

Taktik tayyorgarlik shaxsiy, guruh va jamoa harakatlarini egallashni ko'zda tutadi. Usosiy taktik harakatlarni egallashdan va ularni takomillashtirish (to'p yo'lini to'sish, himoya va hujum turlarini tanlash, to'pni uzatish hamda darvozaga otish va shu singarilar)dan iborat bo'lib, o'yin va maxsus mashqlarda amalga oshiriladi.

Taktik reja bo'yicha o'yin o'ynashni bilish, shuningdek, o'yin paytida aniq vaziyatga bog'liq ravishda taktik vazifalarni to'g'ri hal qila bilish juda muhimdir. Shularga ko'ra, maxsus o'yin mashqlari bilan birga ikki tomonlama o'yinlar o'tkaziladi. O'zlashtirib olingan "kombinatsiya" va tizimlarni tanish va notanish jamoalarga nisbatan o'yinda qo'llay bilishni o'rgatish kerak.

Adabiyotlar.

1. Akramov J.A. "Gandbol": Darslik 2008 y.
2. PavlovSh.K, AkramovJ, Abduraxmonov "Gandbol" Darslik 2005y
3. Pavlov Sh.K.,Abduraxmanov F.A. Gandbol: darslik, T. 2010 y.
4. Sh.K. Pavlov, R.I.Azizova "Gandbol" Toshkent-2009.F.A.